



ZARABOG' HAVZASIDAGI TEPAQIYASOY PETROGLIFLARI

Jovliyev Javohir Jahongir o'g'li
Surxondaryo viloyati Angor tumani
1-son texnikumi tarix fani o'qituvchisi
e-mail: durondur90@gmail.com
тел: (99)710 18 50

Vatanimiz tarixini keng ko'lamli va to'laqonli o'rganishda moddiy-madaniy va arxeologik meros yodgorliklarning o'рни va ahamiyati beqiyosdir. Shunday madaniy yodgorliklar jumlasidan bo'lgan qoyatosh rasmlardir. Bugungacha Markaziy Osiyo mintaqasida uch yuzdan ziyod qoyatosh suratlarining manzili aniqlangan va hisobga olingan [3; 103b.]. O'zbekistonda hozirga qadar 180 dan ortiq qadimgi qoya tosh suratlari topilgan [13;18-19.].

Bu madaniy yodgorliklar tosh, jez, temir, po'lat yoki boshqa xildagi qattiq buyumlar yordamida o'yish, cho'kichlash, chizish natijasida ishlangan. Bunday uslubda ishlangan rasmlar arxeologiyada petrogliflar deb ataladi [15;74-75]. O'zbekiston bo'yicha eng qadimgi petrogliflar mezolit davriga oid bo'lib, Ko'hitangtog'dagi Zarautsoy qoyatosh rasmlaridir[4;213-216], [5;69-71]. Bo'yoq bilan ishlangan rasmlar Nurota tizmasi tog'laridagi Sangijumansoy, Oqsoqolotasoy [9; 21.], hamda A.Xolmatov tomonidan aniqlangan Beklarsoy va Olmalisoy yodgorliklarida uchraydi.

2015 yilda Surxondaryoning ibtidoiy san'at tarixini o'rganish bo'yicha yana bir muhim yangilik qilindi. Sh.B.Shaydullaev va L.Stancho rahbarligidagi O'zbekiston-Chexiya xalqaro arxeologik ekspeditsiyasi Sherobod tumanining tog'li Zarautsoydan 15 km uzoqlikda joylashgan Zarabog' qishlog'i yaqinida petrogliflar aniqlandi. Qoyatosh rasmlari yodgorligi Surxondaryo viloyati, Sherobod tumani hududidagi Zarabog' qishlog'idan 500 m janubi-sharqda, dengiz sathidan 985 m balandlikda joylashgan [1;123-138].

2016-2023 yillarda tadqiqotlarimiz natijasida, Tepaqiyasoydan jami 16 ta toshlarda 42 ta obraz tasvirlangan suratlar majmui aniqlangan. Ularning koordinatalari, suv sathidan balandligi va egallagan yuzasi aniqlandi. Tadqiqotlar davomida, Zarabog' qishlog'i yaqinida Gadoytopmassoy, Kayritsoy, Kampirtepasoy, Qorabog'soy, Shalqonsoy va O'zbeksoy o'rganildi. Bu soylar ichida eng kichigi Tepaqiyasoydir. Tepaqiyasoyning oxirgi tugash joyi baland bo'lganligi uchun mahalliy aholi bu soyni Tepaqiyasoy deb nom bergan. Tepaqiyasoy Gadoytopmassoyga yaqinroqda joylashgan. Tepaqiyasoydan topilgan tosh rasmlarini jadvaliga shartli nom berdik. Bu shartli nom Zarabog' Tepaqiyasoy petrogliflari –ZTP deb ataldi



ZTP1 - Soy Zarabog' qishlog'ining janubiy sharqida joylashgan. Soy boshlangan joyda soyni o'ng tarafida tosh soydan 10 m balandlikda joylashgan. Toshning kattaligi o'rtacha toshda 3ta tuya, va 6 ta tog' echkisi aks etgan.

1. ZTP2 Toshning kattaligi o'rtacha ZTP1 toshidan 2 m uzoqlikda joylashgan. Tosh soydan 12 m balandlikda joylashgan. Toshda 4 ta tog' echkisi aks etgan.

2. ZTP3 Toshning kattaligi o'rtacha ZTP2 toshidan 3-4 m uzoqlikda joylashgan. Tosh soydan 10 m balandlikda joylashgan. Toshda 3 ta tog' echkisi tasvirlangan.

3. ZTP4 - Toshning kattaligi o'rtacha ZTP3 toshidan 5 m uzoqlikda joylashgan. Tosh soydan 15 m balandlikda joylashgan. Toshda odam, ot va tog' echkisi aks etgan.

4. ZTP5 Tosh mayda ZTP4 toshini oldida joylashgan. Tosh soydan 15 m balandlikda joylashgan. Toshda 1 ta tog' echkisi aks etgan.

5. ZTP6 Tosh kattaligi o'rtacha ZTP5 toshidan 4 m uzoqlikda joylashgan. Tosh soydan 6 m balandlikda joylashgan. Toshda tushunarsiz belgi tasvirlangan.

6. ZTP7 Toshni kattaligi o'rtacha ZTP6 toshidan 5-6 m uzoqlikda joylashgan. Tosh soydan 7 m balandlikda joylashgan. Toshda tushunarsiz belgi tasvirlangan.

7. ZTP8 Tosh katta ZTP7 toshini oldida joylashgan. Tosh soydan 7 m balandlikda joylashgan. Toshda tushunarsiz belgi tasvirlangan.

8. ZTP9 Tosh kattaligi o'rtacha ZTP8 toshidan 5 m pastroqda joylashgan. Tosh soydan 3 m balandlikda joylashgan. Toshda tushunarsiz belgi tasvirlangan.

9. ZTP10 Toshning kattaligi o'rtacha tosh soyning ichida joylashgan soydan 1 m balandlikda joylashgan. Toshda 1ta tog' echkisi, 1ta doira (arava) va tushunarsiz belgi (ehtimol odamni yuzi ko'zi bo'lishi mumkin) aks etgan.

10. ZTP11 Tosh katta tosh soyning ichida joylashgan. Tosh soydan 2 m masofada joylashgan. Toshda tushunarsiz belgi aks etgan.

11. ZTP12 Tosh katta tosh soyning ichida joylashgan. Toshda 1ta doira va 1ta tog' echkisi aks etgan.

12. ZTP13 Tosh mayda tosh soydan 15 m balandlikda joylashgan. Toshda 1ta tog' echkisi aks etgan.

13. ZTP14 Tosh katta tosh soydan 25 m balanda joylashgan. Toshda 4 ta tog' echkisi va tushunarsiz belgilar tasvirlangan.

14. ZTP15 Tosh katta toshda tosh soydan 6 m balanda joylashgan. Toshda tushunarsiz belgi tasvirlangan.

15. ZTP16 Tosh katta tosh soydan 6 m balanda joylashgan. ZTP15 toshning orqa tarafi toshda tushunarsiz belgi, 2 ta doira (arava) va 2 ta tuyani rasmi aks etgan.



Tepaqiyasoy toshlari ham shu atrofdagi soylar toshlari kabi granit, ohaktosh va mayda zarrali qumtoshlardan tashkil topgan. Mana shu toshlarning tekis sathlariga qadimgi rassomlar tomonidan asosan tosh va metall asboblardan urib-cho'kichlash, o'yish, ishqalash va kesish texnikalari asosida ko'plab tasvirlar ishlangan. Sarmishsoy [8;33], Ilonlisoy [18;69], Qoraqiyasoy [14;13-14], Quduqchasoy [17;103-104], Noqisoy [16;166-167], Soy-sabak [2;145-146], Arpauzen [10;24-25], kabi va deyarli Markaziy Osiyo tog'laridan topilgan deyarli barcha qoyatosh yodgorliklariga xosdir. Soyning sharq tarafida toshlarda rasmlar ko'proq uchraydi, soyning g'arb tarafida tosh rasmlar kamchilikni tashkil etadi. Lekin, bu yerdan topilgan arxeologik yodgorliklar, shu jumladan, tosh rasmlar bir paytlar soy va uning atroflari o'simlik va hayvonot dunyosiga ancha boy bo'lganligini, ajdodlarimiz undan unumli foydalanganligini ko'rsatib turibdi.

Suratlarning ishlanish texnikasi ustida olib borgan tekshirishlarimiz shuni ko'rsatdiki, tosh sirtidagi izlarning askariyatini nuqtasimon va tuxumsimon izlar tashkil qiladi. Chunki, har qanday o'tkirlangan asbob bir-yoki ikki marta toshga urilishi bilan uchi bir oz to'mtoqlashadi, natijada bu asbobning tosh sirtidagi ko'ndalang kesmasi yarim doira shaklidagi iz qoldiradi [6;173-174]. Rasm ishlash vaqtida tosh sirtida qoldirilgan izlarning shakli, chuqurligi va katta-kichikligi suratlarni ishlash uchun tayyorlangan asbob, uning o'tkirligi, shakli, tosh sirtiga qanday kuch bilan qay tarzda urilishi va nihoyat, rasm ishlanayotgan toshning yumshoq-qattiqligiga ham ko'p jihatdan bog'liqdir. Ba'zi qadimgi va keyingi davrga mansub bo'lgan suratlarning sirti dag'al, sayoz, katta-katta shakldagi izlardan iboratdir. Bunday rasmlar, ehtimol, toshdan yasalgan yoki tosh parchasi yordami bilan ishlangan bo'lishi ham mumkin. Tadqiqotimiz natijasida Gadoytopmassoy[12;102-103], tosh rasmlari bilan Tepaqiyasoy tosh rasmlari o'xshashligini ko'rishimiz mumkin. Tepaqiyasoy tosh rasmlar orasida tog' echkilarining tasvirlari kishi diqqatini o'ziga tortadi. Sababi, bu rasmlarda hayvon tanasi a'zolarining holatlari jonli, tabiiy holatda, mohirona tasvirlangan (1-rasm ZTP1,ZTP2,ZTP4,ZTP14). Shuni aytib o'tish kerakki, toshlarda turli-tuman hayvonlar tasvirlarini ko'plab ko'rish mumkin. Ularning aksariyati O'rta Osiyo asosan, O'zbekiston uchun xos bo'lgan hayvonlardir. Tog' echkisi O'rta Osiyo va undan tashqaridagi joylarning tog'li tumanlarida ham keng tarqalgan. O'rta Osiyo qoyatoshlarida mazkur hayvonning tasviri juda ko'p uchraydi. Tepaqiyasoy tosh suratlarida, Eron [7;335] va Ozarbayjondagi [11;56-57], qoyatosh suratlarida ham o'xshashligini ko'rishimiz mumkin. Ular ba'zan yakka, ko'p hollarda esa qo'shshoxli, uzun bo'yinli, kelishgan tanali, ikki oyoqli va qisqa dumli qilib ifodalangan.

Tepaqiyasoy rasmlari orasida mil. avv. I ming yillikka oid bo'lgan davrda ishlangan rasmlar ko'pchilikni tashkil etadi. Sarmishsoy va Tepaqiyasoy tosh



rasmlari taqqoslanganda o'xshashligini ko'rishimiz mumkin. Tepaqiyasoy tosh rasmlarida sxematik va kontur uslubda ishlangan rasmlar ko'proq uchraydi. Toshlarda ibtidoiy davrning iqtisodiy hayoti bilan bog'liq ba'zi hodisalar, jonli manzaralar ko'plab uchraydi. Tepaqiyasoydan topilgan rasmlarning xronologik sanasini aniqlashda ba'zi arxeologik materiallar ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. O'zbekiston-Chexiya-Fransiya xalqaro arxeologik ekspeditsiyasining Zarabog' qishlog'i yaqinida, olib borgan arxeologik tadqiqotlari natijasida Burguttepa, va Kayritepa yodgorliklar topilgan. Bu yodgorliklar so'ngi bronza va temir davriga oid. Zarabog' qishlog'i yaqinida sopoldan yasalgan muhr topilgan. Muhrda tog' echkisi aks ettirilgan, tosh rasmlar orasida ham tog' echkisi rasmlari ko'proq uchraydi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, Tepaqiyasoy tosh rasmlarning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, u O'zbekiston hududida ilk san'at namunalarining paydo bo'lishini va rivojlanishini ilmiy asoslaydi. Qadimgi aholining mifologik va diniy dunyoqarashi, tasavvuri bo'yicha ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi. Tepaqiyasoy tosh suratlari davri so'nggi bronza, ilk temir davri bilan xarakterlanadi. Hozirgi kunda Tepaqiyasoy petrogliflari ustidagi ilmiy ishlarimiz davom etmoqda.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Augustinová A., Stančo L. The Petroglyphs of Pashkhurt Valley in the Surkhan Darya Province (South Uzbekistan) – Preliminary Report 2016 // *Studia Hercynia*, XX/2, 122–138.
2. Бобомулла Бобомуллаев Соё Сабақ Эшқурбонов С.В. Қоятош тасвирий санъат обидалари таҳлиliga оид баъзи мулоҳазалар // *Шарқшунослар анжумани (ТДШИ) №9 сонли тўплами*. Тошкент, 2014. 99-103 бб.
3. Эшқурбонов С.В. Қоятош тасвирий санъат обидалари таҳлиliga оид баъзи мулоҳазалар // *Шарқшунослар анжумани (ТДШИ) №9 сонли тўплами*. Тошкент, 2014. 99-103 бб.
4. Формозов А.А. Книга о древней наскальной живописи в Узбекистане. 1951, №3. С.213-216.
5. Формозов А.А. Очерки по первобытному искусству. Наскальные изображения и каменные изваяния эпохи камня и бронзы на территории—. М., 1969. С 69-71
6. Гиря Е.Ю., Дэвлет Е.Г. Об исследовании техники выполнения изображений // *Проблемы истории, филологии, культуры*, №1(35). Магнитогорск, 2012. 173-174б.




7. Jamal Lahafian Rock Art in Kurdistan Iran 2013. 335-3366.
www.mdpi.com/journal/arts
8. Кабиров А. Сармишсойнинг қоятошларидаги расмлар. Тошкент, 1976. 336
9. Кондрикова М., Хўжаназаров М. Наскальные изображения Янбапсая // Ўзбекистон қадимда ва ўрта асрларда. Самарқанд, 1992. 216.
10. Кадырбаев К.М., Марьяшев А.Н. Петроглифы хребта Каратау. Алматы, 2007. 24-256.
11. Mohammad Mirzaei, Najmeh Nouri, Ali Karimi, Kiya Nasrin Analysis on Rock Art in Qarasu River Basin at Meshgin Shahr (Azerbaijan) Alizadeh International Journal of Archaeology 2016; 4(5) 54-60.
12. Ойназаров Х.Ғ. Гадойтопмассой петроглифлари // “Ўтмишга назар” журнали. 15-сон, 2019 йил. 98-105 б.
13. Хужаназаров М. Сармишсой қоятош расмлари илмий тадқиқотлари. Тошкент, 2018. 18-19 б.
14. Хужаназаров М.М. Наскальные изображения Ходжакента и Каракияся. Самарқанд, 1995. 13-146
15. Холматов А. Нурота тизмаси қоятош расмларининг техник-типологик жиҳатдан ўрганилишига доир (янги қоятош расмлари мисолида) // Ўзбекистон археологияси, №1(12). Самарқанд, 2016.74-756.
16. Холматов А.Н. Ноқисой янги қоятош расмлари // Ўзбекистон археологияси, №1. Самарқанд, 2010. 166-169 бб.
17. Холматов А.Н., Хўжаназаров М.М. Қудукчасой қоятош расмлари // Ўзбекистон археологияси, № 2(9). Самарқанд, 2014.103-1046
18. Шацкий Г.Б. Рисунки на камне. Ташкент, 1973. 696.




ZTP1



ZTP2



ZTP4



ZTP14

1-rasm –ZTP1,ZTP2,ZTP4,ZTP14